

Baxtiyorova Durdona Ixtiyorovna
Buxoro Innovatsion ta'lim va
tibbiyot universiteti
assistenti
ixtiyorovnadurdona@gmail.com

GOOGLE ASSISTANT YORDAMIDA TIL O'RGANISHNING INNOVATSION USULLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola Google Assistant texnologiyasining til o'rganish jarayonidagi innovatsion imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan. Maqolada Google Assistantning kundalik suhbatlar, talaffuzni yaxshilash, so'z boyligini oshirish, mashqlarni rejalashtirish va interaktiv o'yinlar kabi funksiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Google Assistantning foydalanuvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishda samaradorlik darajasi o'rganilib, uning qulayliklari va cheklovlari tahlil qilindi. Maqola sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi ahamiyatini yoritib beradi va raqamli yordamchilarning kelajakda ta'lim sohasidagi o'rnini kengaytirish istiqbollarini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari Google Assistantni ta'limiy jarayonlarga joriy etishda nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: Google Assistant, til o'rganish, innovatsion texnologiyalar, sun'iy intellekt, ta'limiy jarayonlar.

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ИЗУЧЕНИЯ ЯЗЫКОВ С ПОМОЩЬЮ GOOGLE ASSISTANT

Аннотация. Данная статья посвящена изучению инновационных возможностей технологии Google Assistant в процессе изучения языков. В статье анализируются такие функции Google Assistant, как ежедневные разговоры, улучшение произношения, расширение словарного запаса, планирование упражнений и интерактивные игры. В ходе исследования была изучена эффективность Google Assistant в развитии языковых навыков пользователей, а также рассмотрены его преимущества и ограничения. Статья освещает значение технологий искусственного интеллекта в образовательном процессе и показывает перспективы расширения роли цифровых помощников в сфере образования в будущем. Результаты исследования могут служить теоретической и практической основой для внедрения Google Assistant в образовательные процессы.

Ключевые слова: Google Assistant, изучение языков, инновационные технологии, искусственный интеллект, образовательные процессы.

INNOVATIVE METHODS OF LEARNING LANGUAGES USING GOOGLE ASSISTANT

Annotation. This article is dedicated to exploring the innovative capabilities of Google Assistant technology in the process of language learning. The article analyzes functions such as daily conversations, pronunciation improvement, vocabulary expansion, exercise planning, and interactive games. The study examines the effectiveness of Google Assistant in developing users' language skills, as well as its advantages and limitations. The article highlights the significance of artificial intelligence technologies in the educational process and outlines the prospects for expanding the role of digital assistants in the field of education in the future. The research findings can serve as a theoretical and practical foundation for integrating Google Assistant into educational processes.

Keywords: Google Assistant, language learning, innovative technologies, artificial intelligence, educational processes.

Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalari, xususan, raqamli yordamchilar, ta'lim sohasida inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirmoqda. Shu jumladan, Google Assistant kabi zamonaviy vositalar o'rganish jarayoniga innovatsion yondashuvlarni taqdim etmoqda. Bu texnologiyalar til o'rganishni osonlashtirish, samarali qilish va yanada interaktiv tajriba yaratish imkoniyatini taqdim etadi. Google Assistant, dastlab kundalik yordamchi sifatida ishlab chiqilgan bo'lsa-da, o'zining keng imkoniyatlari bilan til o'rganish jarayonida katta rol o'ynashni boshladi. Google Assistant orqali til o'rganish, foydalanuvchilarga o'zlarini erkin ifodalashga yordam beruvchi bir nechta vositalarni taqdim etadi. Bunga talaffuzni yaxshilash, yangi so'zlarni o'rganish, grammatika mashqlarini bajarish va ko'plab interaktiv o'yinlar orqali ko'nikmalarni rivojlantirish kiradi. Ushbu maqolada Google Assistant texnologiyasining til o'rganishdagi innovatsion usullari tahlil qilinadi va bu texnologiyalarni ta'lim jarayonida qanday keng qo'llash mumkinligi o'rganiladi. Kirish qismida taqdim etiladigan muammo, Google Assistantning til o'rganish jarayonidagi samaradorligini, cheklovlarini va imkoniyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan. Maqola, nafaqat ilmiy tomondan, balki amaliy nuqtai nazardan ham yangi tavsiyalarni taqdim etadi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarining kelajakdagi ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati haqida fikrlar bildiriladi. Ushbu maqola, til o'rganishning yangi va innovatsion usullarini qidirayotgan ilmiy izlanuvchilar, ta'lim sohasidagi mutaxassislar va texnologiyaga qiziquvchilar uchun muhim ma'lumotlarni taqdim etadi.

Ushbu mavzu doirasida Buxoro Innovatsion Ta'lim va tibbiyot universiteti talabalari bilan universitet ichki platformasida quyidagi savollar orqali so'rovnoma o'tkazildi:

“Sun'iy intellekt orqali til o'rganish qanchalik qulay? Siz hozir ushbu vositalar orqali til o'rganyapsizmi?, O'rganishni reja qilganmisiz? O'rganib bo'lganmisiz?”
O'tkazilgan so'rovnoma natijasi (1-rasmga qarang).

65 nafar talaba

- hech qanday real pedagog til o'rgatuvchisiz faqat sun'iy intellekt orqali til o'rganayotgani

106 nafar talaba

- sun'iy intellekt xususan Chat GPT va Google assistant orqali va qo'shimcha til kurslariga qatnashish orqali til o'rganayotgani

267 nafar talaba

- yaqin kelajakda suniy intellekt orqali til o'rganishni reja qilgani aniqlandi.

1-rasm. Buxoro Innovatsion Ta'lim va tibbiyot universiteti talabalari bilan universitet ichki platformasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari.

Qiziqarli jihati shundaki talabalar aksariyat so'rovnomalarga deyarli ishtirok etishmaydi yoki majburan istar istamas ishtirok etishadi ammo, sun'iy intellekt mavzusiga befarq bo'lmagan talabalar ushbu so'rovnomada faol ishtirok etishdi va platformaning izohlar qismiga ko'plab izohlar ham qoldirishgan. Bundan ko'rinib turibdiki yildan yilga suniy intellekt orqali til o'rganish foizi ortib boryapti. Ayniqsa, Google Assistant texnologiyasi til o'rganishda zamonaviy va qulay vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu yordamchi sun'iy intellekt asosida ishlaydi va ko'plab foydali funksiyalarni taqdim etadi. Quyida Google Assistant yordamida til o'rganishning asosiy usullari va afzalliklari haqida so'z yuritamiz.

1. Kundalik suhbatlar

Google Assistant bilan suhbat qilish sizga tilni mashq qilish imkonini beradi. Siz unga savollar berishingiz, yangi so'zlarni izohlashni so'rashingiz yoki oddiy muloqot qilishingiz mumkin. Masalan:

"What does this word mean?" (Bu soʻz nimani anglatadi?)

"How do you say 'thank you' in French?" (Fransuz tilida 'thank you'ni qanday aytasiz?)

2. Talaffuzni yaxshilash

Google Assistant talaffuzni avtomatik ravishda tekshiradi. Agar biror soʻz yoki iborani notoʻgʻri aytsangiz, u sizni toʻgʻrilaydi yoki toʻgʻri talaffuzni takrorlaydi. Bu chet tilida ravon gaplashishga yordam beradi.

3. Soʻz boyligini oshirish

Google Assistant orqali yangi soʻzlar va iboralarni oʻrganishingiz mumkin. Foydali buyruqlar:

"Teach me five new words in English." (Menga ingliz tilida 5 ta yangi soʻz oʻrgat.)

"What are synonyms for 'beautiful'?" ('Beautiful' uchun sinonimlar qanday?)

4. Eslatmalar va rejalar Til oʻrganishda muntazamlik muhim. Google Assistant eslatma qoʻshish va reja tuzishda yordam beradi: "Remind me to practice French at 7 PM every day." (Har kuni soat 19:00 da fransuz tilini mashq qilishimni eslat.)

5. Oʻyinlar va quvnoq mashqlar

Google Assistant orqali oʻquv oʻyinlari oʻynashingiz mumkin. Masalan:

"Play a word game." (Soʻz oʻyini oʻyna.)

"Let's play trivia in Spanish." (Keling, ispan tilida trivia oʻynaymiz.)

6. Audio va video resurslar

Google Assistant orqali podkastlar yoki til oʻrgatuvchi videolarni topish oson:


"Play an English learning podcast." (Ingliz tilini oʻrgatuvchi podkastni qoʻy.)

"Find a video for learning German." (Nemis tilini oʻrganish uchun video top.)

Google Assistant – bu zamonaviy raqamli yordamchi boʻlib, kundalik vazifalarni bajarishda qulaylik yaratadi. Uning bir qator afzalliklari mavjud boʻlib quyidagi jadvalda ulardan bir nechtasini havola qilamiz:

1-jadval

Google Assistantning afzalliklari



U har qanday vaqtda va joyda yordam beradi: statistikani bilish, ob- havoni bilish, har qanday savollarga tezda javob topish, har qanday taomlarning retseptlarini bilib olish mumkin



U sizning til oʻrganish darajangizga moslashadi. Masalan: Ovozli buyruqlar asosida shaxsiy jadvalni boshqarish, uchrashuvlarni eslatish va kunlik vazifalarni yodga solish. Ob-havo maʼlumoti, yoʻl harakati yoki yangiliklar kabi xizmatlar foydalanuvchining joylashuvi va qiziqishlariga mos ravishda taqdim etiladi.



Ingliz, fransuz, ispan, xitoy va boshqa koʻplab tillarda yordam beradi. Shuningdek, foydalanuvchilar Google Assistant bilan muloqot qilish orqali boshqa tillarni oʻrganishi yoki oʻzlashtirishi mumkin.

Ingliz tilida yoʻnalishlarni mashq qilish uchun Google Xarita, Google Assistant bilan ishlash. Oʻquvchilar dars vaqtida Google Assistant bilan suhbatlashishi bir vaqtda ular uchun ham

zavqli ham foydali bo'lishi mumkin. Ular yordamchiga turli savollarni berishlari mumkin, masalan: "...da ob-havo qanday?", "... ga qanday borsa bo'ladi?" bunda o'quvchilar interaktiv va qiziqarli mashg'ulot orqali bir paytning o'zida qiziqarli ma'lumotlarni o'rganish bilan birga o'zlarining talaffuz va muloqot qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Qolaversa, talabalar qaysi so'zlarni talaffuzida kamchiliklari bor va qanday qilib bunin tuzatishlari mumkinligi haqida ham ma'lumotlar olishlari mumkin. Masalan, o'quvchilar o'qituvchi tomonidan o'rnatilgan model asosida yordamchiga navbatma navbat savol berishlari mumkin. Topshiriq oxirida o'z natijalarini boshqa sinfdoshlari bilan bo'lishishlari mumkin. SI bilan integratsiyalashgan vositalar nafaqat talabaning talaffuzini mashq qilishda balki umumiy bilimni oshirishda ham yordam beradi. Google Xaritalar (Google maps) – sun'iy yo'ldosh tasvirlarini taqdim etadigan navigatsiya, xaritalash ilovasi. Yo'nalishlar va manzilga qanday borishni o'rgatayotganda yoki tinglab tushunish topshiriqlarining xaritalar bo'limida, mobil qurilmalarda mavjud bo'lgan ushbu mashhur ilovadan foydalanish mumkin. Asosiy buyruqlar va yo'nalishni ko'rsatuvchi so'zlar o'rgatilgandan so'ng (o'ngga/chapga buriling, ko'chani kesib o'ting, yonida, to'g'ri oldinga, qarama-qarshi va hokazo.) ta'lim maskaniga yaqin joylar sanab o'tiladi. Maqsad o'quvchilar o'z manzildan (maktabdan) sanab o'tilgan joylarga birma-bir borishni o'rganishlari kerak. Xaritani ko'rish imkoniyatiga ega bo'lish orqali o'quvchilar sinfdoshiga kerakli joyga qanday borishni ingliz tilida aytib berishlari kerak. Ushbu mashg'ulot nafaqat qiziqarli, balki real hayotiy topshiriqqa juda yaqindir.

Sun'iy intellekt nafaqat xorijiy tillarni o'rganishda samarali vosita bo'lib xizmat qilyapti balki informatika sohasida ham keng va samarali foydalanib kelinmoqda. Jumladan, Chirchiq davlat pedagogika instituti professori Nurmuhammad Duisenov o'zining "Sun'iy intellekt va eksport tizimlari" nomli maqolasida quyidagi fikrlarni keltirib o'tgan: Sun'iy intellekt — informatikaning alohida sohasi bo'lib, odatda inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi. Sun'iy intellekt (SI) kompyuterlarga o'zlarining tajribalarini o'rganish, berilgan parametrlarga moslashish va ilgari faqat odamlar uchun mumkin bo'lgan vazifalarni bajarish imkonini beradi. SI ni amalga oshirishning ko'p holatlarida - kompyuter shaxmatchilaridan tortib uchuvchisiz transport vositalarigacha - chuqur o'rganish va tabiiy tillarni qayta ishlash imkoniyati juda muhimdir. Ushbu texnologiyalar tufayli kompyuterlarga katta miqdordagi ma'lumotlarni qayta ishlash va ulardagi naqshlarni aniqlash orqali muayyan vazifalarni bajarishga "o'rgatish" mumkin.

Xulosa. Google Assistant yordamida til o'rganish jarayoni nafaqat samarali, balki qiziqarli ham bo'ladi. Ushbu texnologiyadan foydalanish orqali siz muloqot qilish ko'nikmalingizni rivojlantirishingiz, yangi so'zlarni o'rganishingiz va o'zingizni til o'rganishga muntazam ravishda jalb qilishingiz mumkin. Agar siz til o'rganishni oson va qiziqarli qilishni istasangiz, Google Assistant imkoniyatlaridan unumli foydalanishni boshlang! Tadqiqot natijalari Google Assistantning til o'rganish jarayonidagi innovatsion imkoniyatlarini o'rganish uchun yirik bir platforma sifatida qanday samarali ishlashini ko'rsatdi. Google Assistant nafaqat foydalanuvchilarga talaffuzni yaxshilash, so'z boyligini oshirish, grammatika va til ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi, balki o'rganish jarayonini qiziqarli va interaktiv qilish orqali ta'limni yangi darajaga olib chiqadi. Texnologiya o'rganish jarayonida individual ehtiyojlarga moslashib, har bir foydalanuvchiga o'ziga xos yondashuvni taqdim etadi, bu esa til o'rganishni samarali va foydali qiladi. Google Assistant yordamida o'rganishning asosiy afzalliklari uning qulayligi, interaktivligi va samaradorligidir. Texnologiyaning imkoniyatlari til o'rganishni davom ettirishni osonlashtiradi, chunki foydalanuvchi istalgan vaqtda, istalgan joyda, o'rganishni davom ettirishi mumkin. Shuningdek, Google Assistant o'rgatishning an'anaviy metodlari bilan taqqoslaganda foydalanuvchining faol ishtirokini ta'minlaydi va o'rganish jarayonini yanada jonli qiladi. Biroq, tadqiqotda ba'zi cheklovlar ham ko'rsatildi, masalan, texnologiyaning ba'zi funksiyalari to'liq rivojlanmagan bo'lishi va foydalanuvchining individual ehtiyojlariga to'liq mos kelmasligi. Shunday qilib, sun'iy intellekt tizimi til o'rganish jarayonida samarali qo'llash uchun uni takomillashtirish va foydalanuvchi tajribasini yaxshilash bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar zarur. Umuman olganda, Virtual yordamchini ta'lim sohasida kengroq qo'llash

- 140 mumkin, va uning kelajakda ta'lim jarayonida o'rni va ahamiyati yanada ortishi kutilmoqda. Bu texnologiya nafaqat til o'rganish, balki kengroq ta'lim jarayonlarida ham innovatsion yondashuvlarni qo'llashga yordam beradi. Kelajakda, sun'iy intellekt texnologiyalari va raqamli yordamchilar o'rganish jarayonini yanada sifatli va samarali qilishda asosiy vositalardan biriga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Akhmedov,B.A., Eshnazarova, M. Yu., Rustamov, U. R., Xudoyberdiyev, R. F. (2020). Cluster method of using mobile applications in the education process. Экономика и социум, 12(79).
- 2.Kasimova, M.A.(2024). Suniy intellekt orqali xorijiy til o'rganuvchilarining faolligini oshirish va ta'lim jarayoniga jalb qilish
- 3.Nurmuhammad Duisenov , Bekjan Axmedov , (2021). Sun'iy intellekt va ekspert tizimlari.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi Farmoni. 2023-yil.
- 5."Artificial Intelligence in Language Education". Educational Technology Review, 18(4), 156-170.
- 6.Communication culture skills of primary students in English language classes, Qo'ldosheva Nigoraxon Avezmurodovna, Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development Volume 28, June - 2024 ISSN (E): 2751-1731. Website: www.sjird.journalspark.org
- 7.The methodological principles for developing environmental education in the republic of Uzbekistan Nargiza Dilova,*, Manzura Kosimova, Vazira Raxmanova1, Maftuna Hotamova, and Nigora Kuldosheva, E3S Web of Conferences538,05001,(2024) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202453805001>